

## **MINTAQANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH OMILLARI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI**

**Tuyev Abdurahmon Yusubopvich**

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hokimining “Navro‘z” M.F.Y  
tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni  
qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi

*E-mail:* [abdurahmon.tuyev@gmail.com](mailto:abdurahmon.tuyev@gmail.com)

*Orcid kod:* 0009-0004-5435-5998

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillarining hududiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ularning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. O'rganish natijasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ishlab chiqarish salohiyati, investitsion muhit, mehnat resurslari, infratuzilma rivoji, moliyaviy barqarorlik va institutsional mexanizmlarning hal qiluvchi omillar ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda iqtisodiy tahdidlarga nisbatan samarali choralar ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** mintaqa, iqtisodiy xavfsizlik, barqaror rivojlanish, iqtisodiy omillar, hududiy siyosat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение факторов, обеспечивающих экономическую безопасность региона, в региональном развитии. Основная цель статьи – выявление внутренних и внешних факторов, влияющих на экономическую безопасность региона, и оценка их воздействия на устойчивое экономическое развитие. В исследовании использованы методы систематического анализа, экономико-статистического анализа, сравнения и логического обобщения. В результате исследования установлено, что решающими факторами обеспечения экономической безопасности являются производственный потенциал, инвестиционный климат, трудовые ресурсы, развитие инфраструктуры, финансовая стабильность и институциональные механизмы. Результаты исследования имеют практическое значение для формирования региональной экономической политики, сокращения

межрегиональных различий и разработки эффективных мер против экономических угроз.

**Ключевые слова:** регион, экономическая безопасность, устойчивое развитие, экономические факторы, региональная политика.

**Abstract:** This article analyzes the role and significance of factors ensuring the economic security of the region in regional development. The main purpose of the article is to identify internal and external factors affecting regional economic security and assess their impact on sustainable economic development. The research used the methods of systematic analysis, economic and statistical analysis, comparison and logical generalization. As a result of the study, it was determined that production potential, investment environment, labor resources, infrastructure development, financial stability and institutional mechanisms are decisive factors in ensuring economic security. The results of the study are of practical importance in the formation of regional economic policy, reducing interregional disparities and developing effective measures against economic threats.

**Keywords:** region, economic security, sustainable development, economic factors, regional policy.

### **Kirish**

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi qator elementlardan va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklardan iborat. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu tasodifiy omillarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan turli xil iqtisodiy subyektlar manfaatlarining qarama-qarshiligidir. Mintaqa darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammosining dolzarbligi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi xavfsizligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarning "arxitekturasini" o'rganish va ularni ma'lum bir mezonlarga muvofiq tizimlashtirish zarurligini belgilaydi.

Mintaqaning real va potensial ichki va tashqi tahdidlari yoki iqtisodiy faoliyat sohasida jamiyat hayotiga ma'lum darajada zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sharoitlar va xavf tug'diradigan omillar to'plami sifatida aniqlanadi. Tahdidlar o'sib borayotgan beqarorlik sharoitida ichki va tashqi jarayonlarning doimiy rivojlanishi tufayli yuzaga kelganligi sababli, ularga javob berish uchun mintaqa iqtisodiyotni, uning tashqi va ichki muhitini ma'lum darajada himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mintaqasini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yalpi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishga katta bog'liq bo'lib hisoblanadi, chunki xar bir omilning ta'sir samarasi iqtisodiy xavfsizlik tizimining turli elementlariga turlicha darajada ta'sir etadi. Shuning uchun biz mintaqa darajasida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi yalpi omillarni

aniqlash va ularni tizimlashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. "Omil bu (lotincha soʻz boʻlib "biror narsaning yaratuvchisi") - harakatlantiruvchi kuchi, biror bir jarayonning sababchisi, uni keltirib chiqaruvchi yoki uning xususiyatlarini tavsiflovchi" degan maʼnoni anglatadi<sup>[1]</sup>. Tadqiqot doirasida biz mintaqaviy iqtisodiy tizimning iqtisodiy xavfsizligini taʼminlash yoki uning darajasini oshirish jarayoniga obyektiv taʼsir koʻrsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki omillarni tushunamiz.

Mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash va uni amalga oshirish omillari va shart-sharoitlarni farqlash lozim. Agar omillar asosan obyektiv holatda boʻlsa, shart-sharoitlar esa iqtisodiy xavfsizlik darajasini taʼminlash va takomillashtirish natijasida oʻzgarib turadigan turdosh shart-sharoitlardir. Agar omillar asosan iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilaydigan obyektiv holatlar boʻlsa, unda mintaqaviy tizimni ichki va tashqi tahdidlardan uzluksiz doimiy himoya qilish jarayonini taʼminlash uchun shart-sharoitlarni shakllantirish yoki yaratilishi lozim. Mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratish uchun iqtisodiy xavfsizlik omillarini aniqlash va ularni tizimlashtirish lozim.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda amal qilayotgan omillar kelajak istiqbolda mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga asos boʻlib xizmat qiladi. Bunday shart-shartlarga: sanoat, oziq-ovqat, kadrlar, energetika, innovatsiya, ijtimoiy, ekologik va hokazolarning mintaqaviy siyosatining ustuvor yoʻnalishlarida resurslarni jamlash; iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash uchun masʼul xodimlar tomonidan qoʻshimcha koʻnikma va vakolatlarga ega boʻlish; tegishli axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish, maʼlumotlar bazalarini yaratish va boshqalar. Shunday qilib, omillar kelajak istiqbolda iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish muammosini muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarga aylanishi mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik omillarining tasniflari koʻpincha turli mezonlarga muvofiq beriladi, ammo kamdan-kam hollarda iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash omillari va shart-sharoitlarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishga urinishlar mavjud boʻlgan. Ikkinchidan, baʼzi tadqiqotchilar turli xil xususiyatlarga koʻra omillarni tizimlashtirishni yaxshi koʻradilar. Biroq barcha omillarni tasniflashning iloji boricha toʻliq aks ettirish istagi maʼlum bir tadqiqot obyektiga nisbatan asosiy vazifalardan biri sifatida olingan emas.

---

<sup>1</sup> Tolkoviy slovar russkogo yazika / pod red. D.N. Ushakova. M. 2017 g. S. 764.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Iqtisodiy xavfsizlikning tashqi va ichki omillariga bo'lish bilan bog'liq tasniflar Rossiyalik Y.A.Oleynikov<sup>2</sup>, V.V.Krivorotov, A.V.Kalin, N.D.Eriashvili<sup>3</sup>, V.K.Senchagov<sup>4</sup> va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarda keltirilgan. Ta'sir sohalari bo'yicha omillarning tasnifi V.K.Senchagovning umumiy tahriri ostida yozilgan ilmiy monografiyada tavsiya etilgan. Bu yerda mintaqaning tashqi va ichki omillari makro va mezo - iqtisodiy darajalar bilan ifodalanadi. Bir tomondan, bo'linish mintaqaviy asosda, ya'ni mamlakat darajalari bo'yicha, ikkinchi tomondan - ijtimoiy-iqtisodiy subyektlarning tarmoq faoliyati turlari bo'yicha ham amalga oshirilgan<sup>5</sup>.

Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy xavfsizlik omillarining ko'p belgilari bo'yicha tasnifi taklif etilgan bo'lib uning har bir bo'g'ini darajasida tanlangan iqtisodiy xavfsizlik omillari to'plamini tizimlashtirish imkonini beradigan shakli taklif etilgan. Bu, bizning fikrimizcha, mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni asoslash, shuningdek mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishda xavf va cheklovlarni hisobga olish uchun zarur bo'lib hisoblanadi.

**Natijalar.** Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi mezonlarga muvofiq tasniflash taklif etiladi:

**- boshqaruv darajalari bo'yicha:**

- mikro darajada faoliyat yurituvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;
- mezo darajasida faoliyat yurituvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;
- makro darajasida shallanuvchi va namoyon bo'luvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;

**-mintaqaviy tizim tashkil qiluvchi elementlari bo'yicha (tizim sifatida):**

- resursli;
- jarayonli;
- natijaviy omillar;

<sup>2</sup> Oleynikov, YE.A. Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: uchebnik / YE.A. Oleynikov; pod red. YE.A. Oleynikova. - Moskva: Ekzamen, 2004.

<sup>3</sup> Krivorotov, V.V. Ekonomicheskaya bezopasnost gosudarstva i regionov: ucheb. posobiye dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po napravleniyu «Ekonomika» / V.V. Krivorotov, A.V. Kalina, N.D. Eriashvili. - Moskva: YUNITI-DANA, 2012. - 351 s. - Tekst: neposredstvenniy.

<sup>4</sup> Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: uchebnik / V.K. Senchagov. - 2-ye izd. - Moskva: Delo, 2005. - 896 s. - Tekst: neposredstvenniy.

<sup>5</sup> Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: uchebnik / pod red. V.K. Senchagova. - 3-ye izd., pererab. i dop. - Moskva: BINOM. Laboratoriya znaniy, 2016. - 97-113 s. - Tekst: neposredstvenniy.

*-mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga nisbatan:*

- ichki muhit omillari;
- tashqi muhit omillari;

*-mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga ta'sirining tabiati bo'yicha:*

- mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beruvchi omillar (rag'batlantiruvchi);
- iqtisodiy xavfsizlikni darajasining oshishiga to'sqinlik qiluvchi omillar.




### **1-rasm. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligining kompleks omillari**

Tadqiqot ishida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillarining mualliflik tasnifi ishlab chiqilgan. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida iqtisodiyotning mezo-darajasidir. Shu bilan birga, uning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga bir qator omillar ham ta'sir qiladi: makro, mezo va mikro daraja.

Mikro darajadagi omillar - bu mintaqada faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilaydigan holatlardir. Mezo-darajali omillarni tasniflashda, yuqorida aytib o'tilganidek, turli xil belgilar, shu jumladan ishda foydalanilgan "tizim hosil qiluvchi elementlarning tarkibi" xususiyatidan foydalanish mumkin. Tizim hosil qiluvchi elementlar (kirishlar, jarayon elementlari, chiqishlar) tarkibi va mazmuniga qarab tuzilgan mezo-darajali iqtisodiy xavfsizlik omillar to'plami keltirilgan.

Mintaqaning hududiy va iqtisodiy majmuasi - bu bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan, notekis ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, hududning xususiyatlari, tabiiy resurslarning xilma-xilligi, inson kapitalining sifati va boshqalar bilan ajralib turadigan milliy iqtisodiy tizimning quyi tizimidir.



**2-rasm. “Mintaqaviy tizim elementlari” belgisi bo‘yicha guruxlashtirilgan iqtisodiy xavfsizlikning mezodaraja omillari<sup>6</sup>**

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash hududning barqaror rivojlanishi, aholi farovonligi va milliy iqtisodiyotning mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, iqtisodiy xavfsizlik nafaqat moliyaviy barqarorlik bilan, balki ishlab chiqarish salohiyati, resurslardan

<sup>6</sup> Ojegov, S.I. Tolkoviy slovar russkogo yazika <http://www.classes.ru>.

oqilona foydalanish, investitsiyalarni jalb etish darajasi, mehnat bozorining rivoji hamda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar asosan iqtisodiy nomutanosibliklar, tashqi bozorlar ta'siri, investitsiya faolligining pastligi, ishsizlik darajasi va institutsional muammolar bilan izohlanadi. Shu sababli, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda kompleks yondashuvni qo'llash zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali mintaqaviy siyosat, iqtisodiy diversifikatsiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion rivojlanish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Ushbu omillarni izchil rivojlantirish orqali mintaqalarning raqobatbardoshligi oshadi va ularning iqtisodiy tahdidlarga nisbatan barqarorligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillarini chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish mamlakat miqyosida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolkoviy slovar russkogo yazika / pod red. D.N. Ushakova. M. 2017 g. S. 764.
2. Oleynikov, YE.A. Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: uchebnik / YE.A. Oleynikov; pod red. YE.A. Oleynikova. - Moskva: Ekzamen, 2004.
3. Krivorotov, V.V. Ekonomicheskaya bezopasnost gosudarstva i regionov: ucheb. posobiye dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po napravleniyu «Ekonomika» / V.V. Krivorotov, A.V. Kalina, N.D. Eriashvili. - Moskva: YUNITI-DANA, 2012. - 351 s. - Tekst: neposredstvenniy.
4. Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: uchebnik / V.K. Senchagov. - 2-ye izd. - Moskva: Delo, 2005. - 896 s. - Tekst: neposredstvenniy.
5. Asad o'g'li, R. D. (2025). MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING BAHOLASH OMILLARI. *Journal of new century innovations*, 89(2), 103-105.
6. Abduvaliyev, A. A., Dilmurodov, Z. D., & Rahmatullayev, D. A. (2023). RAQAMLI IKTISODIYET SHAROITIDA TUРИЗМ СОҲАСИ ГЕОАХБОРОТ МОДЕЛИНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Iqtisodiyot va jamiyat*, (5-1 (108)), 959-963.
7. Asad o'g'li, R. D. (2025). MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK

MODELLARI. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 49(1), 323-326.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.